



AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

Toxirova Mavludaxon Erkinbekovna

Andijon viloyati buloqboshi tumani

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi,

Xontepa MFY hokim yordamchisi

Annotatsiya. *Maqolada aholi turmush darajasi tushunchasi, turmush darajasini oshirish va kambag'illikni qisqartirish masalalarini nazariy jixatlari yoritilib, ular yuzasidan kelib chiqqan savollarga javob qidirish, soha ilm fani taraqqiyotiga va qonunlar takomillashishiga hissa qo'shish bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Aholi turmush darajasini oshirish, kambag'illikni qisqartirish borasidagi normalar, iqtisodiy adabiyotlardagi g'oyalar, olimlarning fikrlari, ilmiy yondashuvlar.*

Aholi turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilarning moddiy va madaniymaishiy ehtiyojlarining qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Aholining moddiy ehtiyojlariga oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i va uy-ro'zg'or buyumlariga bo'lgan talablari kiradi. Aholining madaniy-maishiy ehtiyojlariga insonlarning bilim, malakasini oshirish, maishiy va kommunal xizmat ko'rsatishni yaxshilash kabilarga bo'lgan ehtiyojlari kiradi.

Aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishining asosiy maqsadidir. "Turmush darajasi" tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo'lgan keng qamrovli tushunchadir. Ushbu jihatlar jam bo'lib, umuman, jamiyat va xususan, uning ayrim a'zolari farovonligi to'g'risida tasavvur beradi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida O'zbekistonda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga javob beradigan turmush darajasi konsepsiyasini yaratishga zarurat tug'ildi. Mazkur konsepsiyani shakllantirishda so'nggi yillarda jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan "turmush sifati" konsepsiyasining ayrim qoidalaridan foydalanish mumkin.

Turmush sifati konsepsiyasi inson jamoalarining jismoniy, aqliy va ijtimoiy barkamolligini belgilovchi shartlarni shakllantiradi. Bu yerda gap faqat turmush sifati(ovqatlanish, uy-joy, ish bilan bandlik, ta'lim darajasi)ni baholovchi obyektiv omillar haqida emas, balki inson tomonidan o'zining farovonligi, baxt, qoniqish, rohat kabi tushunchalarni subyektiv his etish to'g'risida ham bormoqda. Masalan, sog'liq darajasi, oilaviy munosabatlar, ishi, moddiy ahvoli, yaratuvchanlik qobiliyati va hokazolardan qoniqish hayotdan qoniqish hosil qilishning muhim komponenti hisoblanadi. Shunday qilib, turmush sifati konsepsiyasi insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini ham o'z





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ichiga oladi. Bu munosabatlar ehtiyojlarning qondirilganligi va mavjud imkoniyatlarni kutilgan imkoniyatlarga mosligi darajasini tavsiflaydi.

Turmush darajasi aholi hayot faoliyatining ma'lum bir qirradi to'g'risida tasavvur beradigan ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganish lozim⁶⁵.

Aholining turmush darajasini ifodalash uchun jahondagi turli mamlakatlarda turlicha mezonlar qo'llaniladi. Ular orasida minimal iste'mol budjeti, kambag'allik, mutlaq va nisbiy kambag'allik ko'rsatkichlaridan keng foydalaniladi.

Minimal iste'mol budjeti – shaxsning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy ehtiyojlar istemolining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta'minlaydigan iste'mol tovarlari va xizmatlari turlarining qiymati.

Aholi turmush darajasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarini: aholi pul daromadlari va xarajatlari, uning tarkibi va foydalanilishi; daromad bo'yicha aholini taqsimlash to'g'risidagi ma'lumotlar tavsiflaydi.

Aholi pul daromadlari barcha kategoriyalardagi aholining mehnati evaziga olgan ish haqi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning daromadlari, nafaqa, tushum, stipendiya, qo'yilmalar bo'yicha foiz ko'rinishida mulkdan olingan daromadlar, qimmatbaho qog'ozlar, dividendlar, renta, ko'chmas mulkni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva mollarini sotishdan tushumlar, turli xizmatlarni ko'rsatishdan olingan daromadlar va hokazolardan iborat.

Aholi pul xarajatlari va jamg'arish aholining tovarlar va turli xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari, majburiy to'lovlar va turli xil badallar (soliq va yig'imlar, sug'urtaga to'lovlar, ijtimoiy tashkilotlarga badallar, tovar kreditiga foizlar va hokazo) hamda shaxsiy jamg'armalaridan iborat. O'rtacha aholi jon boshiga pul daromadlari pul daromadlari umumiy yig'indisini mavjud aholi soniga bo'lish orqali hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, aholini ijtimoiy himoyalash organlari hisobida turuvchi pensionerlarning tayinlangan oylik nafaqalari pensionerlar soniga nisbati bilan aniqlanadi. Tayinlangan nafaqa hajmi amaldagi qonunlarga muvofiq belgilanadi. Tayinlangan nafaqaning real hajmi belgilangan oylik nafaqalarning o'rtacha hajmini iste'mol narxlarini indeksiga moslashtirish yo'li bilan hisoblanadi. Oilalarning daromad va xarajatlarini statistik o'rganish uy xo'jaligi budjetlarini statistik tekshirish asosida har oyda muntazam ravishda oilalarni (turli kasbdagi) tanlab olish asosida amalga oshiriladi.

Uy xo'jaligi budjetlarini tekshirish ma'lumotlari aholi daromad tuzilmalari va iste'mol xarajatlarini va aholi turli qatlamlaridagi daromad va xarajatlari o'zgarishini tavsiflaydi, uy xo'jaligi va uning tarkibidagi a'zolarining bandligi bilan bog'langan holda bu darajalardagi

⁶⁵ Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 2-son





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



farqlarni ochishda foydalaniladi, daromad darajasini iste'mol bilan bog'langan holda shakllantirishda alohida manbalarning rolini ko'rsatadi; iste'mol talablari o'zgarishlarini bosqichma-bosqich ifodalashda foydalaniladi; daromadlar darajasi va aholi turmush darajasini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlarni differentsiyalashni ifodalaydi.

Tabiiy o'sish koeffitsiyenti 1920-yilga (11,0 promille) nisbatan 9,9 promillega ko'paygan hamda 20,9 promilleni tashkil etgan.

Aholining turmush darajasini oshishiga bir qancha omillar sabab bo'ladi, jumladan mamlakat aholisining tabiiy o'sishi holati ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu borada turli olimlar o'z fikrlarini bildirib o'tganlar.

Masalan, ingliz iqtisodchilari D.Yum (1711-1776 yy) va A.Smitlar (1723-1790 yy) aholining iqtisodiy maqsadlarga ko'ra o'sishini tadqiq qilganlar. Ularning fikricha, aholi sonining ko'p va ishlab chiqarish samaradorligining yuqori bo'lishi davlat uchun har tomonlama foydalidir hamda ichki va tashqi siyosat, jumladan, davlat manfaatlari nuqtai nazaridan va har qanday davlat gurkirab rivojlanishining inkor etib bo'lmaydigan isboti hisoblanadi. Bu fikrlarga F.Kene (1694-1774 yy) ning qarashlari ham juda yaqin, u jamiyatning rivojlanishi aholi sonining o'sishiga olib keladi va aholi holati, insonlar mehnatidan foydalanish davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim ob'yektlaridan biri hisoblanadi, deb yozgan⁶⁶.

Demak, yuqoridagi olimlarning keltirilgan fikrlaridan ko'rinib turibdiki aholining turmush darjasini aniqlashda ko'pgina mezonlarga bog'liq bo'ladi.

Fikrimizcha esa, Q.X.Abdurahmonovning aholining turmush darajasiga bergan ta'rifi maqsadga muvofiqdir sababi, qisqa qilib aytganda aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi aholining butun bir iste'molini o'z ichiga qamrab oladi va bu mezon aholining turmush darjasini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, aholi turmush darajasini oshirish manbalari ijtimoiy dasturlarning amal qilishi uchun resurs hosil qilish omili hisoblanuvchi iqtisodiy o'sish bilan shakllanadi. Bunda, avvalo, iqtisodiy o'sish bilan ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik shakllanadi. Turmush darajasi statistikasi vazifalariga kishilarning hayot faoliyatiga, moddiy shart-sharoitiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, hodisalar va jarayonlarni o'rganish hamda hal etilishi muhim bo'lgan ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot muammolarini aniqlash kiradi. Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarining yaxshi tuzilgan tizimi ijtimoiy siyosatni samarali ishlab chiqish, kam ta'minlangan aholiga yordam ko'rsatishga asoslangan qarorlar qabul qilish, mamlakatda o'tkazilayotgan islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash, davlat va hududiy ijtimoiy dasturlarining amalga oshirishini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Turmush darajasining statistik tavsiflari uning kompleks baholanishini ta'minlovchi o'zaro bog'langan ko'rsatkichlarning keng tizimiga asoslanadi.

⁶⁶ Abdurahmonov Q.X, Abduramanov X.X, Demografiya O'quv qo'llanma . – T.:Noshir, – 2011. – 17 b



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 2-son
2. Abdurahmonov Q.X, Abduramanov X.X, Demografiya O'quv qo'llanma . – T.:Noshir, – 2011. – 17 b
3. Sotsialnoye obespecheniye v stranax Severnoy Yevropy. M.: MGSU, 1994. – S. 120
4. Melibaevnaa, B. K., & Toshtemirovna, M. K. (2023). PNEUMONIA IN NEWBORN BABIES ON VENTILATORS. World Bulletin of Social Sciences, 19, 16-17.
5. Erkinjon o'g'li, L. A. (2024). SUYAK QADIG'I HOSIL BÒLISH PATOLOGIYALARNI ERTANGI DAVRLARDA ANIQLASH VA DAVOLASH. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 143-147.
6. Kholmatov, S., Madaminov, S., Zokirjonov, D., & Sobirova, D. (2024). A COMPREHENSIVE REVIEW OF RADIOTHERAPY AND CHEMOTHERAPY-INDUCED MORPHOLOGICAL SIDE EFFECTS IN BREAST CANCER TREATMENT: STRATEGIES FOR MANAGEMENT AND MITIGATION. Science and innovation, 3(D6), 11-24.

